

Tarbiyasi og'ir o'quvchilarning xissiy sohalarini rivojlanganligini diagnostika qilish

Muhayyo To'lqinjon-qizi Bozorova
mbozorova21@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiyasi og'ir o'quvchilarning hissiy sohalarini rivojlanganlik darajasini diagnostika qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. O'quvchilarning emotsional holati, hissiy barqarorligi, o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati hamda atrofdagilar bilan emotsional munosabatlarini aniqlashga qaratilgan diagnostik metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, hissiy rivojlanish darajasini baholash mezonlari va psixologik diagnostika usullarining samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion va profilaktik ishlarni takomillashtirishga, ularning ijtimoiy moslashuvi hamda shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarbiyasi og'ir o'quvchilar, hissiy soha, emotsional rivojlanish, psixologik diagnostika, hissiy barqarorlik, korreksion faoliyat, emotsional intellekt, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv, psixologik baholash

Diagnostics of the development of emotional spheres of students with difficult upbringing

Muhayyo Tolqinjon-kizi Bozorova
mbozorova21@gmail.com
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses the theoretical and practical aspects of diagnosing the level of emotional development in students with behavioral and disciplinary difficulties. Diagnostic methods aimed at identifying students' emotional state, emotional stability, ability to manage their own feelings, and emotional relationships with others are analyzed. In addition, the criteria for assessing the level of emotional development and the effectiveness of psychological diagnostic methods are examined. The results of the study can contribute to improving corrective and preventive work with students who experience behavioral and educational difficulties, as well as supporting their social adaptation and personal development.

Keywords: students with behavioral difficulties, emotional sphere, emotional development, psychological diagnostics, emotional stability, corrective activities,

emotional intelligence, personality development, social adaptation, psychological assessment

Kirish. Bugungi kunda jamiyatda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va giyohvandlik holatlarining ortib borishi dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur holatning yuzaga kelishida yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning yetarli darajada samarali tashkil etilmagani muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tarbiya jarayoni faqatgina oilada emas, balki maktab va mahalla muhitida ham uzviy davom etadigan kompleks jarayon hisoblanadi.

Maktab muhitida o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida sinfdoshlar, do‘stlar hamda sinf rahbarining ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktab o‘quvchilari o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida turli psixologik-korreksion ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘quvchilar bilan individual suhbatlar o‘tkazish, ularni kuzatish, psixologik diagnostika qilish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega [1].

Shu bois, oilada ota-onalarning ahil va inoqlikda yashashi bolalar xulq-atvoridagi turli og‘ishlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Nosog‘lom, nizoli muhitda voyaga yetayotgan o‘smirlar uchun ota-ona mehrining yetishmasligi ularning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, deviant xulq-atvorning shakllanishiga zamin yaratadi.

Asosiy qism. Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarning hissiy sohalarining rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish pedagogik-psixologik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning emotsional holati, his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati, stressga chidamliligi hamda ijtimoiy munosabatlarga moslashuv darajasini aniqlashga qaratiladi. Diagnostika ishlari tizimli, bosqichma-bosqich va individual yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Psixodiagnostikada eng keng qo‘llaniladigan metodlardan biri test metodlari xisoblanadi. Psixodiagnostik metodlarni qo‘llash muayyan tayyorgarlikni, tegishli ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Shuning uchun ham tajriba sinov ishlarimizda ushbu testlarga tayangan xolda Bass Darki tomonidan ishlab chiqilgan “Tajavvuzkorlikni aniqlash shkalasi” dan foydalandik [2].


2-jadval.

Bass Darkining “Tajavvuzkorlikni aniqlash” so‘rovnomasiga berilgan javoblarning jadval shakilda ifodalanishi

No	Mezonlar	Qizlar 26 nafar	O‘g‘il bolalar 32 nafar
1	Jismoniy tajovuz	18	40
2	Vositali tajovuz	24	34
3	Qo‘zg‘aluvchanlik	27	31
4	Negativizm	31	27
5	Xafalik hissi	27	31
6	Shubhalanuvchanlik	31	27
7	Verbal tajovuz	28	30

8	Aybdorlik hissi	22	36
---	-----------------	----	----

Tadqiqot natijalari Bass-Darki tajovuzkorlik shkalasi bo'yicha qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida tajovuzkorlik darajasining namoyon bo'lishidagi turli shakllarida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi.



Jismoniy tajovuz ko'rsatkichi bo'yicha o'g'il bolalarda (40) qizlarga (18) nisbatan ancha yuqori natija kuzatildi. Bu o'g'il bolalarda ochiq, to'g'ridan-to'g'ri jismoniy tajovuzga moyillik kuchli ekanligini anglatadi. Odatda o'g'il bolalar organizmida testosteron gormoni miqdori qizlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, testosteron tajovuzkor xulq-atvor, ayniqsa jismoniy faollik va impulsiv harakatlar bilan bevosita bog'liq. Shu sababli o'g'il bolalarda jismoniy tajovuz tezroq va ochiqroq namoyon bo'ladi [3].

Vositali tajovuz ko'rsatkichining qizlarda (34) o'g'il bolalarga (24) nisbatan yuqori bo'lishi, qizlarda tajovuzkorlikning bevosita emas, bilvosita va yashirin shaklda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bunday tajovuz turiga mish-mish tarqatish, gap tashish, masxara qilish, aybni boshqalarga yuklash yoki shaxsga ochiq hujum qilmasdan unga zarar yetkazish kabi xatti-harakatlar kiradi.

Bu holat, avvalo, qizlarga nisbatan jismoniy va ochiq tajovuzning ijtimoiy jihatdan cheklangani bilan izohlanadi. Qizlar jamiyat tomonidan "muloyim", "tinch" bo'lishga undagini uchun, salbiy his-tuyg'ularini ochiqcha ifoda etish o'rniga, ularni ijtimoiy maqbulroq hisoblangan bilvosita usullar orqali chiqaradi [4].

Shuningdek, qizlarda ijtimoiy munosabatlarga sezgirlik va guruh ichidagi aloqalarga katta ahamiyat berish xususiyati kuchli bo'ladi. Natijada tajovuz ham aynan shu munosabatlar orqali - so'z, ishora yoki pozitsiyaviy harakatlar bilan ifoda etiladi. Bu esa vositali tajovuz darajasining yuqoriligiga olib keladi.

O'g'il bolalarda mazkur ko'rsatkichning pastroq bo'lishi ularning tajovuzi ko'proq ochiq, to'g'ridan-to'g'ri va jismoniy yoki verbal shaklda namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Shu sababli ularda bilvosita tajovuzga ehtiyoj nisbatan kamroq bo'ladi.

Qo'zg'aluvchanlik ko'rsatkichining qizlarda (27) va o'g'il bolalarda (31) bir-biriga yaqin bo'lishi har ikki guruhda ham emotsional beqarorlik, tez ta'sirlanish va impulsiv reaksiyalarga moyillik mavjudligini ko'rsatadi. Bu yosh davriga xos psixoemotsional rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, tashqi ta'sirlarga nisbatan sezgirlikning yuqori ekanligini anglatadi [5].

Biroq o'g'il bolalarda qo'zg'aluvchanlikning biroz yuqoriroq bo'lishi ularning emotsional reaksiyalari tezroq va kuchliroq namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu holat, bir tomondan, biologik omillar-nerv tizimining qo'zg'aluvchan turga yaqinligi va gormonal o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy omillar bilan izohlanadi. Jamiyat o'g'il bolalarga his-tuyg'ularni nazorat qilishdan ko'ra, ularni tezkor harakat bilan ifoda etishni ko'proq ma'qullaydi.

Qizlarda qo'zg'aluvchanlik nisbatan pastroq bo'lsada, u ko'pincha ichki kechinmalar, xavotir va emotsional zo'riqish shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni qizlar tez qo'zg'algan holatni tashqi harakat bilan emas, balki ichki hissiyot orqali boshdan kechirishga moyil bo'ladilar.

Negativizm va shubhalanuvchanlik shkalalari bo'yicha qizlarda (31) ko'rsatkichning o'g'il bolalarga (27) nisbatan yuqori bo'lishi, ularda ichki qarshilik, ishonmaslik va yashirin norozilik holatlari nisbatan kuchliroq ekanligini anglatadi. Qizlar tashqi tomondan moslashuvchan va itoatkor ko'rinishi mumkin, ammo ichki ravishda talab va cheklovlarga nisbatan qarshilik hissini saqlab qolishga moyil bo'ladilar [6].

Bu holat, avvalo, qizlarga qo'yiladigan ijtimoiy-tarbiyaviy talablar bilan bog'liq. Qizlardan ko'pincha sabr-toqatli, muloyim va itoatkor bo'lish kutilgani sababli, ular ochiq qarshilik ko'rsatish imkoniyatiga kam ega bo'ladilar. Natijada norozilik ochiq tajovuz sifatida emas, balki negativizm - passiv qarshilik shaklida namoyon bo'ladi.

Xafalik hissining o'g'il bolalarda (31) qizlarga (27) nisbatan yuqori bo'lishi ularda adolatsizlik hissi, ranjish va ichki norozilik holatlari ko'proq to'planishini anglatadi. O'g'il bolalar ko'p hollarda o'z ehtiyoj va talablari qondirilmaganida yoki o'zini kamsitilgandek his etganda, bu holatni ochiq ifoda etmasdan, ichki ravishda yig'ib boradi.

Bu holatning sabablaridan biri- o'g'il bolalarni tarbiyalash jarayonida his-tuyg'ularni ochiq bildirish cheklanishidir. «O'g'il bola yig'lamaydi», «sabrli bo'lishi kerak» kabi ijtimoiy qarashlar ularni xafalik va ranjishni ochiq bayon etishdan tiyib turadi. Natijada salbiy hislar ichkarida to'planib, xafalik hissi kuchayadi. Qizlarda esa xafalik hissi nisbatan pastroq bo'lishi, ularning his-tuyg'ularni verbal va ijtimoiy yo'llar bilan chiqara olishi, ya'ni gapirish, shikoyat qilish yoki qo'llab-quvvatlash olish orqali ichki zo'riqishni kamaytirish imkoniyati bilan izohlanadi.

Verbal tajovuz bo'yicha har ikki guruh ko'rsatkichlari yaqin (qizlar 28, o'g'il bolalar 30) bo'lib, bu og'zaki tajovuz (qo'pol so'z, baqirish, haqorat) har ikki jinsda ham deyarli bir xil darajada namoyon bo'lishini anglatadi.

Qizlar his-tuyg'ularini ko'proq so'z orqali ifoda etishga moyil bo'ladilar. G'azab, ranjish yoki norozilik holatlarida jismoniy harakatdan ko'ra, qattiq gapirish, tanqid qilish, haqoratli yoki keskin so'zlar ishlatish orqali o'z munosabatini bildiradilar. Shu bois verbal tajovuz ularda tabiiyroq shaklda namoyon bo'ladi.

Aybdorlik hissining o'g'il bolalarda (36) qizlarga (22) nisbatan yuqori bo'lishi shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalar tajovuzkor xatti-harakat sodir etganidan so'ng ichki nazorat mexanizmi kuchliroq ishga tushadi. Ya'ni, tajovuz jarayonida ular impulsiv va nazoratsiz harakat qilgan bo'lsa-da, keyinchalik o'z qilmishiga nisbatan o'z-o'zini ayblash, pushaymonlik va ichki iztirobni kuchli his qiladilar.

Qizlarda aybdorlik hissining nisbatan past bo'lishi esa ularning tajovuzi ko'proq verbal yoki bilvosita shaklda namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Bunday tajovuz turlari ko'pincha ochiq jazoga sabab bo'lmagani uchun, qizlarda o'z xatti-harakatini ayb sifatida anglash darajasi pastroq bo'ladi.

Tajribamiz davomida qizlar va o'g'il bolalarda tajovuzkorlikning namoyon bo'lish shakllari o'rtasida sifat jihatdan farqlar mavjudligini ko'rdik. O'g'il bolalarda tajovuz ko'proq ochiq, to'g'ridan-to'g'ri va jismoniy shaklda namoyon bo'lsa, qizlarda esa u asosan bilvosita, verbal va ichki-psixologik ko'rinishlarda ifodalanadi. Jismoniy tajovuz ko'rsatkichining o'g'il bolalarda ancha yuqori bo'lishi ularning biologik (gormonal), psixologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan izohlanadi. O'g'il bolalar impulsivlikka moyil bo'lib, salbiy his-tuyg'ularni harakat orqali chiqarishga intiladilar. Shu bilan birga, ularda xafalik va aybdorlik hissining yuqoriligi tajovuzkor xatti-harakatlardan keyin ichki kechinmalar va viqdon azobi kuchli ekanligini ko'rsatadi [8].

Xulosa. Umuman olganda, tadqiqot natijalari tajovuzkorlikni jinsga xos yagona fenomen sifatida emas, balki uning namoyon bo'lish shakllari nuqtai nazaridan baholash zarurligini ko'rsatadi. Psixologik profilaktika va korreksion ishlarda ushbu farqlarni inobatga olgan holda, o'g'il bolalarda o'z-o'zini nazorat qilish va emotsional boshqaruvni, qizlarda esa ochiq muloqot, ishonch va konstruktiv qarshilik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bolalar va o'smirlar xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida ota-ona, oila a'zolari hamda maktab jamoasining ta'sirini ko'rsatish mumkin. Ta'lim muassasalarida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan olib boriladigan tuzatish ishlari maktab ichki nazoratiga olish, ular bilan davra suhbatlari tashkil etish hamda o'quvchilarni qiziqishlariga mos to'garaklarga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu chora-tadbirlar yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmanova D.R. O'smirlarda ko'rqinch determinatsiyasi xususiyatlarining turli vaziyatlarda rivojlanishi. Avtoreferat. T., 2004.
2. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Avtoreferat. T., 2002.
3. Salayeva N. Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari. Avtoreferat..nomzodlik disser. T., 2002.
4. Тетерятникова, Людмила Николаевна «Социально-педагогическая профилактика девиантного поведения младших подростков в общеобразовательных учреждениях» Кострома 2009
5. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent, "Fan" nashriyoti – 2008, 52 bet.
6. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy psixologik muammolari. Monografiya. - T.: "Fan" nashriyoti, 2008. 181 bet
7. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlari. Avtoreferat, T., 2004.
8. Fayziyeva M.X. Oila barqarorligida shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy psixologik xususiyati. Avtoreferat. T., 2005.
9. Adibaxon Shavkat-Qizi Eshkabilova, D.D. Oribboyeva Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari // Science and Education. 2026. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalar-davrida-o-quvchilarning-psixologik-xavfsizligini-ta-minlash-muammolari> (дата обращения: 02.06.2026).
10. Shahlo Shuxratjon Qizi Rustamova, Dilafruz Oribboyeva Ta'limda gender stereotiplari va ularni yengish usullari // Science and Education. 2025. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-gender-stereotiplari-va-ularni-yengish-usullari> (дата обращения: 02.06.2026).
11. Д. Д. Ориббоева, Н. Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили // Science and Education. 2025. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologik-tad-i-otlarda-bulling-mummosining-gender-tahlili> (дата обращения: 02.06.2026).
12. Mohigul Mamanazar Qizi Haydarova, D.D. Oribboyeva O'smirlar psixologiyasi // Science and Education. 2025. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlar-psixologiyasi> (дата обращения: 02.06.2026).
13. Shuhratjon Shukurjon O'g'li Yoqubjanov, Dilafruz Oribboyeva Temperament va xarakter shakllanishida ijtimoiy omillarning roli // Science and Education. 2025.

№12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/temperament-va-xarakter-shakllanishida-ijtimoiy-omillarning-rol-i> (дата обращения: 06.05.2026).

14. Mohigul Mamanazar Qizi Haydarova, D.D.Oribboyeva O'smirlar psixologiyasi // Science and Education. 2025. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlar-psixologiyasi> (дата обращения: 06.05.2026).

15. Д. Д. Ориббоева, Н. Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили // Science and Education. 2025. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologik-tad-i-otlarda-bulling-mummosining-gender-tahlili> (дата обращения: 06.05.2026).

16. Kurbanova, Z. B. Oribboyeva DD Mehnat va muhandislik psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Namangan-"Usmon Nosir mediya"-2022.220 b.

17. Oribboyeva, D. D. (2020). Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(11), 347353.

18. Dilafruz Dadamirzayevna Oribboyeva, Dilshoda Ikromova Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari // Science and Education. 2024. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aqliy-rivojlanishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar-psixologiyasining-o-ziga-xosligi-aqli-zaiflik-turlari> (дата обращения: 18.05.2026).

19. Oribboyeva, D. (2024). BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1 (12), 115-117.

20. Ortiqova, S. R. Q., & Oribboyeva, D. Z. D. (2025). Raqamli muhitda tarbiya: imkoniyatlari va xatarlar. Science and Education, 6(12), 673-677.